

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи (PhD) katta o‘qituvchisi

**MAKTABDA O‘QUVCHILARINING DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH
METODLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlanich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishda xamkorlik va ta’lim muassasalari o‘rni , ta’lim - tarbi ya sifatini integratsiyalash, o‘quv dialogi asosida ta’lim jarayonini individuallashtirish, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishning metodik tizimini takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan

Tayanch iboralar: hamkorlik , samaradorlik, ijodiy,intellektual ,salohiyat, ijodiy faoliyat, o‘zaro aloqadorlik, mas’uliyatlilik, takomillashuv, konstruktiv individual, yo‘nalganlik, o‘quv-bilish faolligi.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda Darsdan tashqariishda ta’limning moddiy bazasi: qo‘srimcha va ma’lumotnomma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko‘zda tutiladi. Ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi;
- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishslash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdир.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo‘limiga sinf rahbarlarining ishlari, muktab ma’muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo‘lishi, ta’sir ko‘rsata olishi kerak.

O‘quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma’naviyati bilan ongini sug‘orish, ya’ni singdirish kerak. O‘quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an‘analarimiz asosida tarbiyalash har bir o‘qituvchining vazifasi.

O‘quvchi atrofini o‘rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o‘qituvchilar, muktabning muhiti, o‘quvchilar tarbiyasini to‘g‘ri, ongli ravishda o‘rganish va qabul qilish. Darsdan tashqariishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin:

To‘garak turlari:

1. Fan to‘garaklari.
2. Mohir qo‘llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axlooqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarining to'garak qatnashchilarli ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rinn tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lif o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lif;
3. Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lif yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lif yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqlol bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lif.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlar oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchszilik jihatlari mavjud bo'ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sind

rahbarining yordamini so‘rab murojaat qiladilar, kuchli o‘quvchilarning qo‘llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo‘llab-quvvatlash bo‘lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o‘quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo‘lib qolsa, u o‘quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma’naviy rivojlanishiga ham to‘sinqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va Darsdan tashqariishlar o‘quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O‘quvchi o‘qituvchiga taqlid asosida yoki do‘stlari orasida o‘rgangan tarbiyasi muomilasiga ta’sir qilish mumkin. O‘quvchi o‘quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan muomalasini etiborini o‘rganishi kerak.

O‘quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o‘qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O‘qituvchi talablariga:

1. Darslarga to‘liq qatnashish.
2. O‘quv qurollari bilan ta’minlanganligi.
3. O‘qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o‘quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mayjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, aks holda o‘quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo‘ladi, bu esa ularni mehnatdagagi tashqi faollikni yo‘qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o‘quvchilarning hatti- harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo‘yilganligi xususida e’tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo‘ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi huning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan o‘qituvchi, sinf rahbari o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish vositalarini puxta o‘ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o‘quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o‘quvchilarni charchatib qo‘ymasin, doim bir xil tusda bo‘lmashin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g‘ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo‘lmashin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o‘quvchilarni o‘quv vazifalarini hal etishga

o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti- harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish Darsdan tashqariishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni yushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatlari o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga mo'ayyan ma'lumot beradilar.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiylasoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiylasoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

4. O'rta umumta'lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi yushtiradi.

Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishaga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

O'quvchilarni maktabdan va Darsdan tashqariko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lda ko'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirdarga qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мўйдинов, А. (2021). Ёшларни Турли Таҳдидлардан Ҳимоя Қилишда Аждодлар Меросидан Фойдаланишнинг Аҳамияти. *Academic Research In Educational Sciences*, 2(2), 132-137.

2. Asilbek, M. (2022). Socio-Philosophical Aspects Of Education Of An Enlightened Person In The Development Of Society. Conferencea, 183-186.
3. Adham o'g'Li, M. A. (2022). The Role Of National Witchcraft Heritage In The Spiritual Rise Of Society (Socio-Philosophical Analysis). *American Journal Of Interdisciplinary Research And Development*, 10, 122-127.
4. Muydinov, A. (2022). Enlightenment In Turkestan In The Second Half Of The Xix-Early Xx Centuries. Enlightenment By Jadid School. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 14-20.
5. Ruzmatovich, U. S. (2022). Processes Of Organization Of Technical, Tactical And Physical Preparation In National Wrestling Training. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(3), 65-68.
6. Ruzmatovich, U. S. (2022). Changes Expected To Come In Our Life Movements. *Web Of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 485-489.
7. Shohbozjon, K., & Azizjon, M. (2022). Preparing School Students In The Field Of Physical Culture And Sports Before Entry To Higher Education. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(10), 100-108.
8. Shavkatovna, S. R. (2021). Developing Critical Thinking In Primary School Students. Conferencea, 97-102.
9. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development Of Logical Thinking Of Primary School Students In Mathematics. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences*, 8(2), 235-239.
10. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development And Education Of Preschool Children. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 326-329.
11. Shavkatovna, S. R. N. (2021). Methodical Support Of Development Of Creative Activity Of Primary School Students. Conferencea, 74-76.
12. Ra'Noxon, S. (2022). Boshlang'Ich Maktab O'Quvchilarida Matematikaga Munosabat. *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali*, 2(11), 203-207.
13. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support For The Development Of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal Of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
14. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement Of Methodological Pedagogical Skills Of Developing Creative Activity Of Primary School Students. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
15. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). Фикрлаш Қобилиятини Ривожлантиришда Ментал Арифметика. *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali*, 2(11), 235-239.
16. Maxamadaliyevna, Y. D., Oljayevna, O. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
17. Sharofutdinova, R. I., Asadullaev, A. N., & Tolibova, Z. X. (2021). The Factors And Basic Concepts Determining Community Health. *Central Asian Journal Of Medical And Natural Science*, 2(5), 376-379.
18. Iqboljon, S. (2022). Boshlang'Ich Sinf o'Quv Jarayonida Axborot Texnologiyalaridan Foydalanish. Ijodkor o'Qituvchi, 2(20), 137-140.
19. Iqboljon, S. (2022). Kompyuter Yordamida Darslarni Tashkil Etish. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 1(9), 246-249.
20. Sharofutdinov, I. (2023). Development Of Acmeological Competence Of Future Educators In The Conditions Of Informing Education. International Bulletin Of Applied Science And Technology, 3(5), 424-429.
21. Sharofutdinov, I. (2023). The Actual Status Of The Methodology Of Developing Acmeological Competence Of Future Educators In The Conditions Of Informing Education. Академические Исследования в Современной Науке, 2(12), 206-213